

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

TOSHKENT



ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti univertiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021 yil « 24 » 08 dagi 4 -sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim 2021 yil « 25 » 08 dagi 365 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|--------|--|-----|
| 1. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi | 4 |
| 1.2.1. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari | 5 |
| 1.2.3. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. | 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar | 5 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar | 8 |
| | Bibliografik ma’lumotlar | 12 |
| | Kelishuv varag‘i | 13 |

1. 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70111401–O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta‘lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta‘lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me‘yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta‘lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas‘ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta‘lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta‘lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

- ta‘limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta‘lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta‘minlovchi organlar;

- oliy ta‘lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70111401–O‘zbek tili va adabiyoti – san‘at va gumanitar fanlar sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, barcha ta‘limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- xalq ta’limi tizimi, boshqarmalar, metodik birlashmalardagi pedagogik va metodik faoliyat;
- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik ta’lim muassasalari va tashkilotlari.

1.2.3. 70111401–O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- me’yoriy-metodik;

1.2.4. 70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha magistrnlarning kasbiy vazifalari:

70111401 – O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik va o‘quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o‘quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o‘quv- metodik majmualarni mukammal o‘zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Pedagogik faoliyatda:

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallagan bo'lish;
- elektron o'qitish metodlarini egallagan bo'lish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, *O'MKHT* va *OTM* tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, *O'MKHT* va *OTM* tizimining mos o'quv muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida, o'tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib no'standart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni shakllantirish va tuzish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

Ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik faoliyatida:

- kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy obzorlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-texnikaviy konferensiyalar ishida ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot, pedagogik va ilmiy-pedagogik mavzularga mos jurnallarga maqola va tezislarni tayyorlash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;
- pedagogik faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- pedagogik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'quv jarayonlarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimi yutuqlariga asoslanib pedagogik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- ta'limiy vositalarning pedagogik-psixologik me'yor talablariga mosligini ta'minlashda, amaliyotga tatbiqi va nazorati jarayonlarida faol ishtirok etish.

Me'yoriy-metodik faoliyatida:

- ochiq tizimlar tamoyillari asosida zamonaviy axborot texnologiyalarining korporativ infrastrukturasi rivojlantirishda korporativ pedagogik siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etish;

- ta'lim sohasida davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishda ishtirok etish.

Quyidagi magistr darajasi beriladi:

- O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi (tadqiqotchi-pedagog)

2. 70111401–O'zbek tili va adabiyoti ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, pedagogik muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- intellektual, madaniy, ma'naviy, jismoniy va kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi va bu qobiliyatni amalda qo'llay bilishi;

- tarixiy meros va madaniy an'analarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lishi, ijtimoiy va madaniy farqlarni bag'rikenglik bilan qabul qilishi;

- o'zining shaxsiy dunyoqarashi orqali ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

- axloqiy va huquqiy me'yorlar va majburiyatlarni hisobga olgan holda maqsadga erishishda qat'iyat ko'rsatishi;

- ilmiy-pedagogik tizimlari sohasida chuqur nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ilmiy-pedagogik tizimlari sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mustaqil ravishda yangi bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash va ulardan amaliy faoliyatda foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- yangi g'oyalarni yaratish va ilmiy-pedagogik-tadqiqot ishlarini mustaqil olib borish qobiliyatiga hamda ilmiy jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- faoliyatning ilmiy, ilmiy-pedagogik va ijtimoiy sohalarida faol ishtirok etish qobiliyatiga ega bo'lish;

- fikrlash madaniyatini egallagan bo'lishi, og'zaki va yozma nutqini argumentlangan holda aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- egallangan tajribani tanqidiy ko'rib chiqish qobiliyati, zarur bo'lganda o'z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o'zgartirishi;

- kasbiy faoliyatda tabiiy-ilmiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanish, nazariy va eksperimental tadqiqot metodlarini qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi;

- bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari davrida jamiyatning rivojlanishidagi axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, bu jarayonda vujudga keladigan xavf va tahdidlarni anglash, informasion xavfsizlikning asosiy talablariga, jumladan, davlat sirini himoya qilish talablariga, rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi;

- mustaqil ravishda jismoniy tarbiya va sog'liqni mustahkamlashdan metodik to'g'ri foydalanish vositalarini, to'laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta'minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning kerakli darajasini egallashgan bo'lishi kerak.

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy-pedagogik tadqiqot mohiyati, tadqiqotga berilgan tavsiflar, tadqiqot strategiyalari va ularni tanlash yo'llari va usullari, sifatga va miqdorga asoslangan tadqiqotlar va ularga xos xususiyatlari, muammoni tanlash yo'llari va usullari, statistik tahlil qilishning mohiyati, statistik tahlil programmalari, deskriptiv statistika, korrelyatsiya va yana til va adabiyot ta'limiga oid yangi ma'lumotlar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- magistrant tadqiqot mavzusini shakllantirish, mavzuga mos ilmiy tadqiqot metodini tanlay olish, ilmiy tadqiqot mavzusi uchun asosnoma tayyorlash, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, o'z ilmiy yo'nalishlarida maqola, tezis tayyorlay olish malakasini egallashi;

- magistrant olingan nazariy bilimlari asosida til va adabiyot ta'limi ilmiy tadqiqida amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholay olish, shu yo'nalishda tadqiqot uchun material yig'ish, tahlil qilish va tadqiqot qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- adabiy-badiiy matn ustida ishlash, janrlar takomi natijasida paydo bo'lgan yangi janrlar, badiiy matnlarda qo'llaniladigan tasviriy-estetik vositalar, she'riy san'atlarni bilishi, tahlil qila olishi va xulosalar chiqara olishi;

- mumtoz badiiy matnlarni tahlil qiluvchi zamonaviy konsepsiyalarni, mumtoz poetika asoslari (ritmika, qofiya, poetik san'atlar) va konponentlarining tarkibiy tahlili, adabiy-ilmiy maktablar, ularning namoyandalari, mumtoz badiiy matnning talqini va tahlili massalalari, yangi o'zbek adabiyotidagi mumtoz namunalarning jahon badiiyati, xazinasidagi maqomini belgilashni bilishi;

- mumtoz badiiy matnni talqin etish va unga struktural munosabatda bo'lish, badiiy matnning poetik xususiyatlari va ularni tarkiblash jarayonini tushuntira olish, mumtoz matnlarni uslubiy tahlil etish, adabiy asar tahlilidan adabiy-nazariy xulosalar chiqarish, ilmiy fikr va mulohazalarni muayyan tizim asosida ifodalash, ilmiy tahlil va talqinda zamonaviy metodologiyani qo'llay bilish, struktural tahlilda estetik tahlil tamoyillariga tayanish, badiiy matn tahlilida struktural va mumtoz poetika tamoyillariga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- adabiyotshunoslik tarixi va nazariyasi yuzasidan egallagan bilimlari asosida adabiyotshunoslikdagi mumtoz tarixiy va nazariy poetikaning o'rni va badiiy tarkiblash jarayonini tushuntira olishi, badiiy asarlarni tahlil qilishning an'anaviy va yangicha usullarini farqlash, an'anaviy mumtoz poetika tamoyillariga mumtoz badiiy matnlar tahlili orqali erishish, tahlil jarayonida milliy mustaqillik g'oyalariga amal qilgan holda ish ko'rishi, adabiy-badiiy tahlil jarayonida mumtoz poetikaning o'rni va amaliy natijalari yuzasidan umumlashma ilmiy xulosalar chiqara bilish va badiiy matnni mustaqil tahlil qilish usullarini ishlab chiqish layoqatlariga ega bo'lishi;

- badiiy asarni lingvistik tahlil qilish va baholash mezonlarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarning mohiyatini, ularning o'xshash va farqli tomonlarini, pedagogik imkoniyatlarini, o'qitishning barcha usullaridan unumli foydalanish, yangi axborot hamda turli texnologiyalarni jalb qila bilishi;

- o'zbek adabiyotini o'qitishning innovatsion texnologiyalari bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'limning mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi, o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi, adabiyot darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyasini targ'ib qila olishi ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- mazkur o'quv predmetining nazariy asoslarini; badiiy asarni estetik tahlil qilish va baholash mezonlarini, adabiyot o'qitishda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini o'stirishning shakl va usullarini, dars jarayoniga qo'shimcha adabiyotlarni, yangi axborot hamda turli pedagogik texnologiyalarni jalb qila olishni, mutaxassislik fanlariga oid o'ziga xosliklar mavjudligini bilish va ularga ta'lim jarayonida alohida e'tibor berish, har bir fanga oid xususiyatlarning qator ichki va tashqi omillarga bog'liqligini, til o'qitish nazariyalarini, metod va postmetod tushunchalarini, postmeod ta'lim tamoyillarini, til o'qitish strategiyalarini, til o'qitish jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- o'zbek tili va adabiyoti turkumidagi fanlarni o'qitish bo'yicha maktab, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy ta'limning bakalavriat bosqichi mohiyati va prinsiplarini o'zlashtirishi, o'quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlay olishi, badiiy asarni mustaqil tahlil qila bilishi, adabiyot darslarida milliy mafkura va mustaqillik g'oyalarini targ'ib qila olishi, magistrant olingan nazariy bilimlari asosida til ta'limini rejalashtirish, samarali dars tashkil etish, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini adekvat baholay olish va unga mos ravishda o'qitish strategiyalarini tanlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

- ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olish, shuningdek, yoshlarni tilshunoslik, adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarga yo'naltira bilish hamda til o'qitish nazariyalarini va metodlarini tanqidiy tahlil qila olish, til ta'limi jarayoniga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarning ta'sirini baholay olish va shu asosda samarali ta'limni rejalashtirish, o'quvchining bilimini adekvat baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

- adabiy tilning o'ziga xos me'yorlarini anglash uni shevadan farqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- amaliy tilshunoslik sohasining nazariy va amaliy masalalari, boshqa fanlar sirasida tutgan o'rni, ahamiyati va vazifasi, tadqiq manbai va predmeti kabilarni chuqur bilishi, amaliy tilshunoslik masalalarini tekshirish, baholash, talqin qilish malakasini egallagan bo'lishi;

- adabiy tilning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilishi, fonetika adabiy talaffuzni shakllantirish omili ekanligini aniqlashi, til va nutqni, tovush va fonemani farqlashi, talaffuz va imlodagi munosabat va ziddiyatlarni farqlashi;

- lingvistik fanlarning nazariy-metodologik asoslari, manbalari, tildagi lingvopragmatik ma'lumotlar turlarini; fanning muammo va yechimlarini; xalqning lingvografik tomonlarni pragmatik tahlil qilish; til va madaniyat muammolarini, nutqning milliy-madaniy xususiyatlarini, lingvografik tahlil usul va yo'llarini farqlashi;

- nutqning milliy-madaniy xususiyatlariga ko'ra yosh jihatdan farqlanishi, tinglovchi va so'zlovchining nutqdagi milliy-madaniy xususiyatlarini, nutq jarayonidagi lisoniy va nolisoniy omillar, ularning mushtarakligi va o'ziga xos rollari mavjudligini amaliy bilishi;

- ta'lim-tarbiya jarayonlarining me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish, ularni tahlil etish, amalda qo'llay va baholay olishi;

- zamonaviy lingvodidaktika g'oyalari, lingvodidaktika tarixi, lingvodidaktikaning boshqa fanlar bilan aloqasi, lingvodidaktikaning psixologik va psixolingvistik, didaktik asoslari, prinsiplari, til o'qitishda milliy va xorijiy metodikaning ilg'or tendensiyalari, ona tili va ikkinchi tilni o'qitishdagi o'ziga xos farqli jihatlar; til o'qitishdagi o'quv jarayoni va o'quv materiallarini tahlil qilish mezonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- metodologiya va lingvodidaktikaga oid zamonaviy bilimlarni mustaqil egallash, metodik muammolarni odindan anglash va yechim topa olish; ona tili ta'limini tashkil etish va o'quv materiallarini mustaqil tayyorlash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

- lingvopoetikaning nazariy-amaliy masalalarini, tadqiq manbai va predmetini, til imkoniyatlarining nutq faoliyatidagi namoyon bo'lish shakl hamda omillarini bilish, matnlarning lingvistik va poetik xususiyatlarini yaxlit holda tadqiq qilish, ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, tahlil qilish malakasiga ega bo'lish;

- til va jamiyat munosabati, tilning sotsial farqlanishi, jamiyatdagi lisoniy vaziyat, til ijtimoiyligi, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy omillarning tilga

ta'siri, ikkitillilik va ko'ptillilik, til siyosati, millat va milliy til muammolarini farqlash; tilning sotsial farqlanishini turli maslak, turlicha kasb-kor, turfa aqliy-ruhiy imkoniyatdagi jamiyat a'zolaridan tashkil topganidan kelib chiqishi va bunga mos ravishda har qaysi ijtimoiy guruhning faol hamda nofaol lug'at tarkibini tahlil qila olish;

- til o'qitishda milliy va xorijiy metodika yutuqlaridan foydalana olish; ta'lim jarayoni va uni tanqidiy tahlil qilish; ta'limning barcha bosqichlari (maktabgacha, boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus), o'quv kurslarida til o'qitishning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda ta'limni loyihalashtirish malakasiga ega bo'lishlari lozim.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, umumiy kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va t-learning texnologiyalari, sifatni baholash va nazorat, mustaqil ta'lim, pedagogik jarayon, malaka amaliyoti, davlat attestasiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, amaliy tilshunoslik, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Rektor Sh.Sirojiddinov

202__ yil «__» _____
m.o'.

KELISHILDI:

**Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika
universiteti**

Rektor _____

202__ yil «__» _____
m.o'.

**O'zbekiston Respublkasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
Tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Drektor v.b. M.Esonov

2021-yil «__» _____
m.o'.